# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

## *60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish bakalavriat ta'lim yo'nalishining*

## *MALAKA TALABI*

**Toshkent-2026**

O'zR OTFIV
Buyruq № 357
2026 yil "22" 08

## ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

## TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil “ 22 ” august dagi 357 – sonli buyrug‘i bilan.

## JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| **1.** | **Umumiy tavsifi.....** | **4** |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi..... | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talabining qo'llanishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlarning tavsifi ..... | 4 |
| 1.2.1. | Kasbiy faoliyatning sohalari ..... | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatarning obyektlari..... | 5 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarning turlari..... | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalar..... | 5 |
| **2.** | **Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....** | **8** |
| **3.** | **Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....** | **12** |
| **4.** | **Fanlar katalogining tuzilishi.....** | **12** |
| | **Bibliografik ma'lumotlar.....** | **23** |
| | **Kelishuv varag'i .....** | **23** |

## 1. Umumiy tavsifi

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### 1.1. Qo'llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talablari 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma va tegishli bo'lim boshliqlari, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyat sohasi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida tegishli til va adabiyotni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa ilmiy tashkilotlarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish; davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat muassasalari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarda tarjimon sifatida kasbiy faoliyat olib borish; shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar hamda faoliyati til, adabiyot, ta'lim va madaniyatlararo muloqot bilan bog'liq bo'lgan kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.**

Davlat boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar, maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar)da filolog, pedagog (asosiy va ikkinchi til bo'yicha).

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ta'lim tashkilotlarida pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat;
- ilmiy-pedagogik faoliyat;
- tarjimonlik faoliyati;
- ta'lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohalarida tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- axborot, nashriyot va muharrirlik faoliyati, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridagi faoliyat;
- filologiya va turdosh gumanitar fanlar sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- til, adabiyot va madaniyatlararo muloqot masalalari bo'yicha ekspertlik va maslahat faoliyati.

**1.2.4. Kasbiy vazifalar.**

• 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ta'lim tashkilotlarida pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyatda:**

- uzluksiz ta'lim tizimining tegishli ta'lim tashkilotlarida mutaxassisligiga mos til (asosiy va ikkinchi til bo'yicha) va adabiyot fanlarini o'qitish;
- zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;
- o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlar va materiallarni ishlab chiqish, tayyorlash hamda rasmiylashtirish;
- o'qitiladigan fanlar bo'yicha zamonaviy didaktik vositalar, elektron ta'lim resurslari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashning zamonaviy usullarini qo'llash;
- mustaqil ta'lim, kasbiy rivojlanish va ilmiy-ijodiy izlanishlar asosida pedagogik faoliyatini muntazam takomillashtirib borish.

**Ilmiy-pedagogik faoliyatda:**

- filologiya va tillarni o'qitish sohasidagi zamonaviy ilmiy yutuqlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish;

- til va adabiyotni o'qitish metodikasiga oid ilmiy-metodik muammolarni o'rganish;
- zamonaviy va innovatsion o'qitish metodlari bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularning natijalarini tahlil qilish;
- ilmiy-metodik seminarlar, konferensiyalar va boshqa akademik tadbirlarda ishtirok etish;
- o'quv-uslubiy va ilmiy-metodik materiallarni tayyorlashda ishtirok etish.

**Tarjimonlik faoliyatida:**

- davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarda o'z kasbiy kompetensiyasi doirasida yozma va og'zaki tarjimani amalga oshirish;
- ta'lim, fan, madaniyat, turizm va boshqa sohalarda tarjimonlik faoliyatini olib borish;
- turli janr va funksional uslublarga mansub matnlarni tarjima qilish;
- rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va boshqa turdagi matnlarni tarjima qilish va tahrir qilish;
- xalqaro konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarda tarjimonlik faoliyatini amalga oshirish;
- tarjima jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron lug'atlar va boshqa lisoniy resurslardan foydalanish.

**Ta'lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohalarida tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- kasbiy faoliyat doirasidagi tashkiliy jarayonlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va ularning natijalarini baholash;
- ta'lim, ilm-fan, til, adabiyot va madaniyatga oid tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar va ma'rifiy loyihalarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;
- jamoada samarali ishlash, kasbiy vazifalarni taqsimlash va ularning bajarilishini muvofiqlashtirish;
- kasbiy faoliyat doirasida davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim va ilmiy muassasalar hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- kasbiy faoliyatni tashkil etishda axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

**Axborot, nashriyot va muharrirlik faoliyatida, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida:**

- ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar va boshqa axborot-kommunikatsiya tashkilotlarida kasbiy faoliyatni amalga oshirish;
- turli janr va uslublardagi matnlarni tayyorlash, tahrir qilish va nashrga tayyorlash;
- axborot, ilmiy-ommabop va publitsistik materiallarni tayyorlash;

- badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv va o'quv-uslubiy matnlarni tahrir qilish va korrektura ishlarini amalga oshirish;
- nashriyot va tahririyatlarda muharrir, musahhih, tarjimon va adabiy xodim sifatida faoliyat yuritish;
- an'anaviy va raqamli axborot resurslari uchun matnli materiallarni tayyorlash.

**Filologiya va turdosh gumanitar fanlar sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- filologiya sohasidagi ilmiy muammolarni aniqlash va ularni o'rganishda zamonaviy tadqiqot metodlaridan foydalanish;
- til va adabiyotga oid materiallarni to'plash, tizimlashtirish, tahlil qilish va ilmiy talqin etish;
- lingvistik, adabiyotshunoslik va lingvodidaktik tadqiqotlarni amalga oshirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, olingan natijalarni qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash va sohaga oid ilmiy hamda o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy axborotni izlash, saralash va tahlil qilish, bibliografik manbalar bilan ishlash;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va boshqa ilmiy tadbirlarda ma'ruzachi hamda muhokama ishtirokchisi sifatida qatnashish;
- ilmiy maqolalar, tezislar, taqrizlar va boshqa ilmiy materiallarni tayyorlash;
- elektron ilmiy bazalar, axborot resurslari va zamonaviy raqamli tadqiqot vositalaridan foydalanish;
- ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari jamoasi tarkibida kasbiy va ilmiy vazifalarni hal etishda ishtirok etish.

**Til, adabiyot va madaniyatlararo muloqot masalalari bo'yicha ekspertlik va maslahat faoliyatida:**

- filologiya, til ta'limi, adabiyot va madaniyatlararo muloqotga oid loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron, video va audio materiallarni o'z kasbiy kompetensiyasi doirasida ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish;
- til, adabiyot, tarjima va kommunikatsiya masalalari bo'yicha o'z kasbiy kompetensiyasi doirasida maslahat xizmatlarini ko'rsatish;
- tilning jamiyatdagi faoliyati va qo'llanish xususiyatlarini lingvistik nuqtayi nazardan tavsiflash va tahlil qilish;
- zamonaviy va tarixiy adabiy jarayonlar hamda turli janrlarga mansub badiiy asarlarni professional darajada tahlil qilish;

- matnlarning lingvistik xususiyatlarini baholash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, jamiyat taraqqiyotining dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari haqida bilimga ega bo'lish hamda ularni mustaqil tahlil qila olish;

kasbiy faoliyatga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish, talqin etish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish;

o'rganilayotgan til va boshqa tillarda kasbiy faoliyatga oid axborot va hujjatlarning mazmunini tushunish, ularni tahlil qilish va kasbiy kommunikatsiyada qo'llash;

axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish, axborotni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va taqdim etish;

kasbiy faoliyat doirasida mustaqil va asoslangan qarorlar qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil egallash, o'z kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish va faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish;

o'rganilayotgan tilning fonetik, fonologik, leksik, morfemik, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik va uslubiy tizimini, uning tarixiy taraqqiyoti hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini bilish;

til birliklarini fonetik, leksik-semantik, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik, uslubiy va lingvistik jihatdan tahlil qilish;

uzluksiz ta'lim tizimining ixtisosligiga mos ta'lim muassasalarida ona tili va adabiyoti hamda o'rgangan tillarni o'qitish ko'nikmasiga ega bo'lish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

namunaviy metodikalar va innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash hamda tahrir qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;

eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda izlash va topish ko'nikmasiga ega bo'lish;

davlat va nodavlat tashkilotlarda tarjimonlik qilish;

texnik va boshqa tarjima turlarini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish;

o'z mutaxassisligi tillariga oid turli tadbir, anjuman va ma'rifiy suhbatlarni tashkil etish va boshqarish;

ommaviy axborot vositalarida muxbirlik va muharrirlik ishlarini amalga oshirish, mustaqil maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlash;

nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlarni, sohaga oid risola va monografiyalar bo'yicha musahhih va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish;

noshirlik muassasalarida tarjimon va adabiy xodim bo'lib faoliyat yuritish, arxiv va muzeylarda ekskursovod, ilmiy xodim sifatida ishlash va sohaga oid ish jarayonini tashkil qilish;

o'rgangan tillarni o'qitish va tarjimonlik faoliyati bilan bog'liq sohalar bo'yicha xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish;

turli tashkilotlarda tarjimonlik va gid-hamrohlik, havo yo'llarida servis hamda turli firma va mehmonxonalarda xizmat ko'rsata olish;

adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy jarayon va adabiy tanqidning asosiy tushuncha va kategoriyalarini bilish hamda turli janrlarga mansub badiiy asarlarni zamonaviy filologik metodlar asosida tahlil qilish;

o'rganilayotgan til adabiyotining milliy va jahon adabiy jarayonidagi o'rnini aniqlash, adabiy aloqalar, o'zaro ta'sir, tipologik o'xshashlik va milliy o'ziga xoslik hodisalarini tahlil qilish;

zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning asosiy ilmiy yo'nalishlari, nazariyalari, metodlari va dolzarb muammolarini bilish hamda ulardan ilmiy va kasbiy faoliyatda foydalanish;

uzluksiz ta'lim tizimining tegishli ta'lim tashkilotlarida mutaxassisligiga mos til va adabiyot fanlarini o'qitish;

pedagogika, psixologiya, til va adabiyotni o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llash;

zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish, tashkil etish va o'tkazish;

o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlar, didaktik materiallar va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish;

ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashning zamonaviy metod va vositalaridan foydalanish;

ta'lim jarayonida zamonaviy metodika va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, ularning natijalarini tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

filologik tadqiqotlarning nazariy va metodologik asoslarini bilish, tadqiqot muammosini aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash hamda tegishli tadqiqot metodlarini tanlash;

lingvistik, adabiy va lingvodidaktik materiallarni to'plash, tizimlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish va ilmiy talqin etish;

ilmiy va bibliografik axborotni an'anaviy hamda elektron manbalardan maqsadli izlash, tanqidiy baholash va ilmiy faoliyatda qo'llash;

ilmiy maqola, tezis, taqriz, referat va boshqa ilmiy matnlarni akademik talablar asosida tayyorlash hamda tadqiqot natijalarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etish;

davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarda o'z kasbiy kompetensiyasi doirasida yozma va og'zaki tarjimani amalga oshirish;

turli janr va funksional uslublarga mansub matnlarni tarjima qilish, tarjima matnlarini tahrir qilish va tarjima sifatini baholash;

tarjimonlik faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron lug'atlar, ma'lumotlar bazalari va boshqa lingvistik resurslardan foydalanish;

kasbiy faoliyat doirasida til, adabiyot, ta'lim, fan va madaniyatga oid tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar va ma'rifiy loyihalarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

kasbiy faoliyatni rejalashtirish, jamoada samarali ishlash, vazifalarni muvofiqlashtirish va amalga oshirilgan ishlar natijalarini baholash;

• ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar va boshqa axborot-kommunikatsiya sohalari uchun turli janr va uslublardagi matnlarni tayyorlash, tahrir qilish va nashrga tayyorlash;

badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik, o'quv va o'quv-uslubiy matnlarni filologik tahrir qilish va korrektura ishlarini amalga oshirish;

filologiya, til ta'limi, adabiyot va madaniyatlararo muloqotga oid materiallar va loyihalarni o'z kasbiy kompetensiyasi doirasida ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish;

til, adabiyot, tarjima, matn tahlili va kommunikatsiya masalalari bo'yicha o'z kasbiy kompetensiyasi doirasida ekspertlik va maslahat faoliyatini amalga oshirish;

kasbiy faoliyatda akademik halollik, kasbiy etika, mualliflik huquqi va axborotdan mas'uliyatli foydalanish tamoyillariga rioya qilish;

o'z kasbiy faoliyati natijalarini tanqidiy baholash, uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga tayyor bo'lish kerak.

**Filologik kompetensiya** – o'rganilayotgan til va adabiyotning nazariy asoslari, tizimli tuzilishi, tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini bilish; til birliklari va turli janr hamda uslublarga mansub matnlarni zamonaviy lingvistik va adabiyotshunoslik metodlari asosida tahlil qilish, talqin etish va baholash; til va adabiyot hodisalarini ularning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va kommunikativ xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish; filologik bilimlarni

ilmiy-tadqiqot, pedagogik, tarjimonlik, tahririy-nashriy hamda ekspertlik va maslahat faoliyatida samarali qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi.

**Kommunikativ kompetensiya** – o'rganilayotgan tilda turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqotni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligini, shuningdek, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni anglash, o'rganilayotgan til bilan bog'liq madaniy xususiyatlarni tushunish va ularni madaniyatlararo muloqot jarayonida hisobga olishni nazarda tutadi.

Mazkur malaka talablarining asosiy vazifalari ta'lim oluvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi:

**Diskursiv kompetensiya** turli janr va funksional uslublarga mansub og'zaki va yozma matnlarni tushunish, talqin qilish va yaratish, ularning lisoniy, uslubiy, mazmuniy va tarkibiy xususiyatlarini aniqlash hamda kommunikativ vaziyatga mos nutq strategiyasini tanlash qobiliyatini nazarda tutadi.

**Strategik (kompensator) kompetensiya** kommunikativ jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida bartaraf etish, muloqot strategiyalaridan samarali foydalanish, zarur hollarda fikrni qayta ifodalash, aniqlashtirish, izohlash va kommunikativ uzilishlarning oldini olish qobiliyatini nazarda tutadi.

- **Ijtimoiy-madaniy kompetensiya** o'rganilayotgan tilning milliy-madaniy xususiyatlari, til egalarining urf-odatlari, qadriyatlari, an'analari, nutqiy xulq-atvori va madaniy me'yorlarini bilish, ularni o'z mamlakati madaniyati bilan qiyosiy jihatdan anglash hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida tegishli bilimlardan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi.

**Ijtimoiy kompetensiya** ko'pmadaniyatli va ko'p tilli jamiyat sharoitida samarali muloqot qilish, turli ijtimoiy va madaniy guruhlar vakillari bilan hamkorlik qilish, kommunikativ vaziyatlarga moslashish, o'zaro hurmat va bag'rikenglik tamoyillariga rioya etish qobiliyatini nazarda tutadi.

**O'quv-anglash kompetensiyasi** o'rganilayotgan til, adabiyot va madaniyatni mustaqil o'rganish, yangi bilimlarni egallash, axborotni izlash, saralash, tanqidiy tahlil qilish va undan foydalanish, shuningdek, zamonaviy ta'lim va raqamli texnologiyalar asosida o'z bilim va kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish qobiliyatini nazarda tutadi.

**3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. **Malakaviy amaliyot** – filologiya, tarjima, ilmiy-tadqiqot, axborot, nashriyot-muharrirlik hamda ekspertlik va maslahat faoliyati bilan bog'liq kasbiy

ko'nikma va kompetensiyalarni amaliy faoliyat jarayonida shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi.

2. **Pedagogik amaliyot** – ta'lim tashkilotlarida til va adabiyot fanlarini o'qitish, o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil etish, zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'lim natijalarini baholash bo'yicha kasbiy-pedagogik ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi.

**4. Fanlar kalogining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | *Fan o'tiladigan semestr |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.00 | Filologiya va tillarni o'qitish: roman-german tillari bo'yicha majburiy fanlar | | | | |
| 1.01 | O'EYT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | DIN1204 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | FALS1304 | Falsafa | 120 | 4 | 3 |
| 1.04 | JMS1204 | Jismoniy madaniyat va sport | 120 | 4 | 2 |
| 1.05 | ATRT1104 | Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | TIFD1104 | Tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn | 120 | 4 | 1 |
| 1.07 | TILK1104 | Tilshunoslikka kirish | 120 | 4 | 1 |
| 1.08 | ADK1204 | Adabiyotshunoslikka kirish | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | O'RT1204 | O'zbek(rus) tili | 120 | 4 | 2 |
| 1.10 | O'YA11-210 | O'qish va yozish amaliyoti 1,2 | 300 | 10 | 1-2 |
| 1.11 | ONTK11-210 | Og'zaki nutq va tinglash ko'nikmalari 1,2 | 300 | 10 | 1-2 |
| 1.12 | AGL11-208 | Amaliy gramatika va leksika 1,2 | 240 | 8 | 1-2 |
| 1.13 | TO'JO1304 | Til o'rganish jarayonlari va omillari | 120 | 4 | 3 |
| 1.14 | DIST1304 | Diskurs tahlili | 120 | 4 | 3 |
| 1.15 | CHO'YT1404 | Chet tillarni o'qitishda yondashuvlar va tamoyillar | 120 | 4 | 4 |
| 1.16 | TTO'KY1404 | Til tizimlarini o'qitishda kommunikativ yondashuv | 120 | 4 | 4 |
| 1.17 | UPSIX1404 | Umumiy psixologiya | 120 | 4 | 4 |
| 1.18 | TO'MA13-408 | Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.19 | AO'Y13-408 | Akademik o'qish va yozish 1,2 | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.20 | IXT13-720 | Ikkinchi xorijiy til 1,2,3,4,5 | 600 | 20 | 3-7 |
| 1.21 | UPED1504 | Umumiy pedagogika | 120 | 4 | 5 |
| 1.22 | TKO'IY1504 | Til ko'nikmalarini o'qitishda integrallashgan yondashuv | 120 | 4 | 5 |
| 1.23 | CTO'IGT1604 | Chet tilini o'qitishda inklyuziya va gender tengligi | 120 | 4 | 6 |
| 1.24 | DRAB1604 | Darsni rejalashtirish va auditoriyani boshqarish | 120 | 4 | 6 |
| 1.25 | KO'YK15-608 | Kasbiy o'qish va yozish kursi 1,2 | 240 | 8 | 5-6 |
| 1.26 | TNA15-714 | Tilshunoslikning nazariy asoslari 1,2,3 | 420 | 14 | 5-7 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.27 | KTTV1704 | Kasbiy tarjima va til vositachiligi | 120 | 4 | 7 |
| 1.29 | CHTBS1704 | Chet tillar ta'limida baholash savodxonligi | 120 | 4 | 7 |
| 1.30 | TAT1704 | Ta'limda amaliy tadqiqot | 120 | 4 | 7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **1200** | **40** | **3-7** |
| | | **Jami** | **6300** | **210** | |
| | | **Malaka amaliyoti** | 900 | 30 | 8 |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | **-** | **-** | **8** |
| Kvalifikatsiya: | | Filolog, pedagog (asosiy va ikkinchi xorijiy til bo'yicha) | | | |
| **1.00** | **Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili bo'yicha majburiy fanlar** | | | | |
| 1.01 | O'EYT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | TSHK1106 | Tilshunoslikka kirish | 180 | 6 | 1 |
| 1.03 | ASHK1106 | Adabiyotshunoslikka kirish | 180 | 6 | 1 |
| 1.04 | XTIL1104 | Xorijiy til | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | FOL1106 | Folklor | 180 | 6 | 1 |
| 1.06 | DIN1204 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.07 | JMS1204 | Jismoniy madaniyat va sport | 120 | 4 | 2 |
| 1.08 | O'RT1204 | O'zbek(rus) tili | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | AXBT1204 | Axborot texnologiyalari | 120 | 4 | 2 |
| 1.10 | HRT12-734 | Hozirgi rus tili 1,2,3,4,5,6 | 1020 | 34 | 2-7 |
| 1.11 | JAT12-412 | Jahon adabiyoti tarixi 1,2,3 | 360 | 12 | 2-4 |
| 1.12 | RTT12-516 | Rus tili tarixi 1,2,3,4 | 480 | 16 | 2-5 |
| 1.13 | RAT12-734 | Rus adabiyoti tarixi 1,2,3,4,5,6 | 1020 | 34 | 2-7 |
| 1.14 | FALS1304 | Falsafa | 120 | 4 | 3 |
| 1.15 | UPSIX1304 | Umumiy psixologiya | 120 | 4 | 3 |
| 1.16 | QCHT1306 | Qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik | 180 | 6 | 3 |
| 1.17 | UPED1504 | Umumiy pedagogika | 120 | 4 | 5 |
| 1.18 | RTAO'M1506 | Rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasi | 180 | 6 | 5 |
| 1.19 | UMT1704 | Umumiy tilshunoslik | 120 | 4 | 7 |
| 1.20 | ANATT1706 | Adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid tarixi | 180 | 6 | 7 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **1140** | **38** | 3-8 |
| | | **Jami** | **6300** | **210** | |
| | | **Malaka amaliyoti** | **900** | **30** | **8** |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | **-** | **-** | **8** |
| Kvalifikatsiya: | | Filolog, pedagog (rus tili va adabiyoti o'qituvchisi) | | | |
| | **Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili bo'yicha majburiy fanlar** | | | | |
| 1.01 | O'EYT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | DIN1204 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 4 |
| 1.03 | FALS1304 | Falsafa | 120 | 4 | 3 |
| 1.04 | JMS1204 | Jismoniy madaniyat va sport | 120 | 4 | 2 |
| 1.05 | AT1105 | Axborot texnologiyalari | 150 | 5 | 1 |
| 1.06 | O'RT205 | O'zbek(rus) tili | 150 | 5 | 2 |
| 1.07 | UPE505 | Umumiy pedagogika | 150 | 5 | 5 |
| 1.08 | UPS605 | Umumiy psixologiya | 150 | 5 | 6 |
| 1.09 | O'F106 | O'zbek folklori | 180 | 6 | 1 |
| 1.10 | DTIY105 | Davlat tilida ish yuritish | 150 | 5 | 1 |
| 1.11 | TN1,809 | Tilshunoslik nazariyasi I, II | 300 | 10 | 1,8 |
| 1.12 | AN1,809 | Adabiyotshunoslik nazariyasi I, II | 300 | 10 | 1,8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.13 | Matn205 | Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik | 150 | 5 | 2 |
| 1.14 | JA2-310 | Jahon adabiyoti I, II | 300 | 10 | 2,3 |
| 1.15 | O'AT2-415 | O'zbek adabiyoti tarixi I, II, III | 450 | 15 | 2,3,4 |
| 1.16 | HO'AT2-311 | Hozirgi o'zbek adabiy tili I, II | 330 | 11 | 2,3 |
| 1.17 | O'D406 | O'zbek dialektologiyasi | 180 | 6 | 4 |
| 1.18 | NSh4-505 | Navoiyshunoslik I, II | 300 | 10 | 4, 5 |
| 1.19 | O'TT4-510 | O'zbek tili tarixi I,II | 300 | 10 | 4,5 |
| 1.20 | OTAO'M5-610 | O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi I,II | 300 | 10 | 5,6 |
| 1.21 | QA605 | Qiyosiy adabiyotshunoslik | 150 | 5 | 6 |
| 1.22 | O'TT605 | O'zbek tilshunosligi tarixi | 150 | 5 | 6 |
| 1.23 | YO'A804 | Yangi o'zbek adabiyoti | 150 | 5 | 8 |
| 1.24 | ATil804 | Amaliy tilshunoslik | 150 | 5 | 8 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **1380** | **46** | 3-8 |
| | | **Jami** | **6300** | **210** | |
| | | **Malaka amaliyoti** | **900** | **30** | **7** |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | **-** | **-** | **8** |
| Kvalifikatsiya: | | Filolog, pedagog (o'zbek tili va adabiyoti) | | | |
| **1.00** | **Filologiya va tillarni o'qitish: sharq tillari bo'yicha majburiy fanlar** | | | | |
| 1.01 | O'EYT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | DIN1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | FAL1204 | Falsafa | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | JMS1104 | Jismoniy madaniyat va sport | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | O'RT1104 | O'zbek(rus) tili | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | G'TA13-720 | Garb tili va adabiyoti | 600 | 20 | 3-7 |
| 1.07 | AT1204 | Axborot texnologiyalari | 120 | 4 | 2 |
| 1.08 | UPS1204 | Umumiy psixologiya | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | UPED1304 | Umumiy pedagogika | 120 | 4 | 3 |
| 1.10 | TK1104 | Tilshunoslikka kirish | 120 | 4 | 1 |
